



## YOSHLARNI IQTIDORI VA ISTE`DODINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

*Latipov.B.U*

*G`ijduvon tuman Fayzulla Xo`jayev*

*mahalla yoshlar yetakchisi*

**Annotatsiya:** - iste`dodli va iqtidorli yoshlar bilan ishlash va ulani aniqlashning me`yoriy-huquqiy asoslarini tahlil etish;

- yoshlarni iqtidori va iste`dodini oshirish zamonaviy usullarini o`rganish va tadbiq qilish;

- mahalladagi yoshlar bilan ishlashdagi muammolarni o`rganish va amaliy takliflar ishlab chiqish;

- iqtidorli va iste`dodli yoshlar bilan psixologik ishlar olib borish hamda ularni motivatsiyalsh usullarini sinab ko`rish.

**Kalit so`zlar:** Istedodli bola, ijtimoiy faollik, mahalla, yoshlar yetakchisi, Yoshlar parlamenti, iqtidorli yosh, Yoshlar daftari, yoshlar balansi, yoshlar siyosati,

Iste`dodning o`z vaqtida namoyon bo`lishi, tarbiyaga va qo`llab-quvvatlashga bog`liqdir. Har qanday jamiyatga iste`dodli shaxslar zarur. Shu nuqtai nazardan iste`dodli bolalarni aniqlash, tarbiyalash va o`qitish respublikaning bo`lajak aql-zakovatli va ijodiy fikrlovchi kuchlarni tayyorlashning yagona manbaidir.

Ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amlga oshirish uchun o`quvchilar iste`dodini aniq taxlil etish, bolalarning o`ziga xos psixologik jihatlarini va fazilatlarini hisobga olish zarur. Turli yoshdagi iste`dodli o`quvchilarni namoyon etishda xozirgi kunda, avvalo maktab pedagogika jamoasi ruhiy-diagnostika tajribalardan unumli foydalanishlari zarur.



Yoshlar iste'dodining namoyon bo'lishiga qobiliyaqlarni aniq tahlil etish, bolaning o'ziga xos fazilatlarini hisobga olish ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun zarur. Qobiliyatlarni rivojlantirish uchun jaraja va bosqichlari yangicha munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi. Qobiliyatning ma'lum bir darajada istalgan o'quvchida shakllangan bo'lishi mumkin. Bu esa tashkil etilgan tarbiya va o'quv jarayoni sharoitlarida rivojlantiriladi.

O'quvchi yoshlar qobiliyatini rivojlantirish maqsadida iste'dod va iqtidorni ongli rag'batlatirish, mukammallik uchun sharoit yaratish, ularning ijodiy qiziqishlari rang-barangligini oshirish, turli ko'rgazmali tadbirdarda ishtirok ettirish, olimpiadalar, tanlovlardan, uchrashuvlarga jalb etish lozim. Iste'dodli bolalarning taniqli olimlar laboratoriyalarda shug'ullanishi, shoир, yozuvchi, rassom kabi san'at namoyondalari bilan hamkorlik qilishni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oila va muhitning ahamiyati yuksak. Ayniqsa respublikaning qishloq joylarida iqtidorli bolalarni izlash, topi shva ularning ta'lim va tarbiyasini muntazam ravishda to'g'ri yo'lga qo'yish muhimdir.

. Iste'dodli bolalarni joylarning hududiy xususiyatlarini hisobga olib, ijodiy kamol toptirishda diagnostik uslubiyatlari, o'quv rejalarini va o'quv uslubiy, tarbiya va ta'lim dasturlari bilan ta'minlash lozim.

Shuningdek, iqtidorli bolalarni izlash, toppish va tarbiyalash uchun zamонавиев moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan to'liq ta'minot zarur.

Iste'dodli bolalar salomatligini muhofaza qilish uchun ularni ruhiy zarbaldandan asrash yo'llarini aniqlash, ruhan yordam ko'rsatish, ruhiy xayajonlanish holatlarini o'rganish – ularning ijodiy qobiliyatlarini rivoji uchun sharoit yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish darkor.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun tarkibiga Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari xodimlari, yetakchi olimlar va mutaxasislar, ijodkorlar, amaliyotchi o'qituvchilar, to'garak rahbarlaridan iborat Respublika metodik kengashi tuzulishi lozim. Turli yoshdagi guruhlar iste'dodlarni qidirishning umumiyligi dasturi zarur.



Ommaviy o'quv yurtlarida bo'lganidek, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ham bu borada o'quv dasturi rejalarini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Iste'dodli bolalarni aniqlash, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlash quyidagi omillargabog'liq:

- ushbu aniqlashning ijtimoiy ahamiyatini, respublikaning zakovati, ijodkorligi, kuch-qudratini tayyorlashning istiqboli bilan bog'liqligini tushunishga;
- ruhiy diagnostik uslubiyat, uslubiy materiallari bo'lgani holda turli yoshdagi guruhlarda aniqlashning umumiy dasturlari yaratilishiga;
- iste'dodli bolalar (maxsus tayyorlangan rejalar, dasturlar va ilmiy asoslangan uslubiyat va hokazo bo'yicha) bilan ishlash uchun ixtisoslashgan muassasalarning yagona tarmog'ini targ'ib etishga;

-ommaviy o'quv yurtlarida iste'dodli bolalar bilan ishlash uchun zarur o'quvdasturiyqo'llanmalarini ishlabchiqishga;

- joylarda mahsus guruhlar tomonidan ishlab chiqilgan xalq ta'limi, davlat va jamoat muassasalari, ijodiy uyushmalar tomonidan tasdiqlangan dasturlarga (bu dasturlarda iste'dodli bolalar bilan ishlashning istiqbollari va bosqichlari, o'z xududida bunday faoliyat va ko'pgina boshqa tadbirlar uchun mablag' ajratish ularni ta'minlashga);  
- qo'yilgan vazifalarni hal qilishga keng jamoatchilik diqqatini jalg qilishga, respublika metodik kengashining tuzilishiga (bu kengash tarkibiga Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, xalq ta'lim boshqaruvi organlari xodimlari, yetakchi olimlari va mutaxassislari, ijodiy uyushmalar, amaliyotchi o'kituvchi, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari to'garak raxbarlari kiradilar);  
- ilmiy tadqiqotlar maktablar uchun me'yoriy xujjatlar, sinf ishlanmalari majmuiga, iste'dodli o'kuvchilar haqida ma'lumotlar manbaini yaratishga, ularni o'qitish va tarbiyalashning (tabaqalashtirish, individuallashtirish, insonparvarlashtirish) yagona uslubiy asosini yaratishga bog'liq. Iste'dodli va iqtidorli bolalarning o'kituvchi hamda tarbiyachilari alohida iste'dodlar uchun turlicha o'kuv reja va dasturlariga ega bo'lishlari maqsadga muvofiq. Iqtidorli bolalar va istedodli yoshlarni aniqlash va o'qitish



uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlarini yaratish. maxsus o'kuv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlarni faol ishtirokini ta'minlash. Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy va kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobit qadam faoliyatni amalga oshirish.

Akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'naliishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish. Iqtidorli o'quvchi bilan qanday ishslash kerak? Bu — ko'pchilik o'qituvchilar oldida muammo bo'lib kelayotgan savol. Har bir sinfda iqtidorli bolalar bor. U qanday bola? Iqtidorli bola ziyrak, qiziqqon, xotirasi kuchli, e'tiborli, mantiqiy fikrlaydigan, ko'p savol berib, bilishga intilayotgan, turli masalalarni tez va oson yecha oladigan o'quvchidir. Aqliy sog'lom bolalarni oddiy, iqtidorli va o'ta iqtidorli guruhlarga ajratish mumkin. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida «Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va o'qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma'lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi.

Maxsus o'quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi, o'quv-tarbiya jarayonida ularning faol ishtiroki siyosat va iqtisodiyotni, madaniyat va san'atni o'rgatish markazlari qabilidagi hamda milliy (elita) ta'lim muassasalari tashkil etiladi. Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy va kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobit qadam faoliyat amalga oshiriladi. Akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'naliishlari bo'yicha tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi», deyilgan. Bu vazifalarni bajarish har birimizdan tin imsiz mahorat va ijodiy izlanishni talab etadi. Hozirgi kunda ta'limda iqtidorli o'quvchi-



yoshlarga alohida e'tibor berilayapti. Ularga chuqur bilim berish, qobiliyatini rivojlanadirish, iqtidorini o'stirish ishlari tobora rivojlanmoqda Ijtimoiy faollik yoshlarning o'ziga xos hususiyati sifatida tahlil etilishi jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy hususiyat - bu uning faolligidir. Faollik (lotincha "astus" - harakat, "astivus" - faol so'zlaridan kelib chiqgan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha xatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir.

"Bu - o'sha oddiy qo'limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog'liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg'onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo'lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi" 2 . Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashiga aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi - muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy - motor harakatlar mujassam bo'ladi. Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz? Agar o'ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zlar, hattoki, tana va qo'l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr hususida bir to'xtamga kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib, undan mammuniyat his qilayotganligidan darak beradi. Bir qarashda tashqi elementar ishni amalga oshirayotgan - misol uchun, uzum ko'chatini ortiqcha barglardan halos etayotgan bog'bon harakatlari ham aqliy komponentlardan holi emas, u qaysi bargning va nima uchun ortiqcha ekanligini anglab, bilib turib olib tashlaydi. 2 Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya. T.: TDPU, 2004, 89 b 7 fanda inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi: A. Tashqi faollik - bu tashqaridan va o'z ichki istak-xoxishlarimiz ta'sirida bevosita ko'rish, qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo'ladigan faollik. B.



Ichki faollik - bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinushi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinxilmagan, lekin faoliyat kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda ""ijtimoiy faollik"- shaxsning har sohadan xabardorlik, komillik darajasini ko'rsatuvchi mezon, deyish mumkin. Ijtimoiy faolikka intilib yashashning o'zi g'oya hisoblanadi. Uning mazmunini esa jamiyat ma'naviy yuksalishini ta'minlaydigan bilim, odob axloq, iste'dod, qobiliyat, ijobiy ko'nikma va malakalar, bular asosida shakllangan dunyoqarashlar majmui tashkil etadi. Yoki aniqroq aytsak, ijtimoiy faollik shaxs ma'naviyatini Kamolot sari etaklovchi, barcha ijobiy mazmunga ega sifatlarni o'zida mujassam etgan, ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladigan g'oyalar majmuidan iborat" 3 . Bo'lajak o'qituvchi talabaning ijtimoiy faolligi shaxs sifati bo'lib, jamiyat ravnaqi yo'lidagi g'oyaviy, siyosiy, kasbiy-madaniy va fuqarolik mas'uliyatining qonuniy ifodasidir. har bir bo'lajak o'qituvchi o'z faniga oid ilmiy bilimlarni egallash bilan bir qatorda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlarni anglab, g'oyaviy jihatdan qurollangan bo'lishi ham talab etilad.

Talaba-yoshlarni O'zbekiston birinchi prezidenti I.A.Karimov asarlarida bayon qilingan ijtimoiy faol va raqobatbardosh, kadrlar tayyorlashga oid nazariy g'oyalar, Sharq mutafakkirlarining barkamol inson tarbiyasiga oid qarashlari, shuningdek, "ta'lim to'g'risida"gi qonun 1. 3 Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. - Toshkent, - 1994.- 96 b. 8 "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ma'naviy jihatdan shakllantirish ularga kasbiy bilimlar berish o'qituvchi kasbiga tegishli malaka va ko'nikmalarni hosil qilish jarayoni bilan uzviylikda olib boriladi. Bu uzviylik pedagogika fanlari hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mazmunidagi o'zaro aloqador hususiyatlarga bog'liq. Demak, talabayoshlarni tarbiyalashda pedagogika oliy o'quv yurtlari oldida turgan muhim vazifa hozirgi davr talabiga javob bera oladigan, erkin fikrlaydigan, o'z fanini chuqur biladigan, kasbiy mahorati kuchli, tashabbuskor,



dunyoqarashi keng, ijtimoiy faol, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Ijtimoiy faollik sifatlarining asosiy elementlarini o'ziga singdirib olgan har bir talaba yosh, bo'lajak mutaxassis sifatida xayot qonuniga mas'uliyat bilan yondashib, ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni aniq idrok etishga, o'zi va kasbdoshlarining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga, ezgu maqsad yo'lidagi to'siqlarning hech biridan cho'chimay engib o'tishga tayyor bo'ladi. Ya'ni, demokratik huquqiy davlatning shakllangan ijtimoiy faol fuqarosiga aylanadi, to'la bilimlarga tomon harakat kilish sifatida sodir bo'ladi. "Bilish tevarak-atrofdagi odamning narsa va xodisalarni hissiy idrok kilishdan boshlanadi. Tashqi olamning sezgi, idrok va tasavvurning xosil bo'lishiga olib keladi, bular Real borlikdagi narsalarni inson ongida aks ettiradi" 4 . Tevarak-atrofdagi olamga muvaffaqiyatli ta'sir etish uchun bu olam rivojlanishining ob'ektiv qonuniyatlarini bilish kerak.

Faqat hissiy bilish yordamidagina bu qonunlarning mohiyatini tushunish mumkin emas. Abstrakt tafakkur tabiat va jamiyat hayoti rivojlanishining ob'ektiv qonunlarini bilishga xizmat kiladi. Abstrakt tafakkur xissiy bilish axborotlarini umumlashtirib, narsa va xodisalardagi hamma muxim bo'lмаган tasodifiy tomonlardan uzoqlashadi hamda narsa va xodisalarning mohiyatiga kirib borib, ularning rivojlanishidagi umumiyligini ochib beradi. Yoshlarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni o'ziga xos hususiyatlarga ham egadir. Avvalo bu o'zlashtirish, bu o'zlashtirib olish o'qituvchi raxbarligida bo'ladi va shuning uchun to'g'ri yo'l bilan amalga oshiriladi.

Bu o'zlashtirish insonning borliqni bilib olish jarayonida uchraydigan egri-bugri yo'llar va yanglishuvlarni chetlab o'tib, ancha qisqa yo'l va muddatda ro'y beradi. Ko'nikma-kishining ma'lum bir harakatlarni ongli ravishda bajarish qobiliyatidir, bu qobiliyat bilimlar va eng oddiy tajriba asosida hosil qilinadi. Bilimlar bajarilayotgan harakatning nazariy asosi hisoblanadi. Bilimlar tufayli harakatlarning ayrim bosqichlari va ularning ketmasetligi tushunarli bo'ladi. Ko'nikmalar – bu amaldagi bilimlardir. . Ko'nikmalarning turlari juda xilma-xildir. Malaka – mashq qilish yo'li bilan hosil



bo'ladigan ish-xarakatdir. Mashq qilish natijasida yurish, o'qish, yozish, og'zaki hisoblash, xilma-xil mehnat operasiyalarini bajarish malakalari hosil qilinadi. Yosh xarakatni bajarishning muayyan usullarini egallab oladi va bu ishni go'yo ongning nazoratisiz, avtomatik tarzda bajaradi. Masalan, mexanizmni yig'ish uchun operasiyalar ketma-ketligini tasavvur qilish, kerakli asbobni tanlash lozim.

"Agar harakat odatdagи bir xarakatga aylansa, u ongning zoxiriy ishtirokisiz bajariladi. Masalan, detalni qisqichga qisish yuzasidan qilinadigan xarakatlarni ko'p marta takrorlash ishchini har doim bu xarakatning ketma-ketligini o'ylab ko'rishdan ozod qiladi. Ishning mazmuni, shakli o'zgarganda odatdagи sharoitlari o'zgargandagina ishchining ongi ishga kirishadi" 5.5 Maxmudov I.I. Boshqaruв psixologiyasi: o'quv qo'llanma G'amас'ul muharrir: 10 individda jamiyat tomonidan o'sha predmetlardan foydalanish yuzasidan qabul qilingan usullarning psixik mexanizmlari shakllantirilgan bulmog'i lozim. Agar o'quv faoliyati ma'naviy madaniyat mazmunini egallab olishga qaratilgan bo'lsa, unday xollarda individning shaxs ongida tegishli mazmunni qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mukammal harakat va operasiyalarni egallab olmog'i muhimdir. Chunki, tadkikotlarning ko'rsatishicha, tevarak atorfagi voq'elikning in'ikosi inson bilan uning faoliyati jarayonida ob'ektiv reallik obrazini kishi ongida faol shakllantirishdan iborat bo'ladi. O'quv faoliyati o'z navbatida bir qancha komponentlardan tashkil topadi.

Ularni shartli ravishda qo'zg'ovchi, programma-maqsadli, harakat-operasion hamda nazorat qiluvchimuvofiqlashtiruvchi komponent deb atalishi mumkin bo'lgan tizimli komponentlarga ajratish mumkin. Qo'zg'ovchi komponent bilishga bo'lgan ehtiyojlarni ana shu boisda shakllantirilgan o'quv motivlarini o'z ichiga oladi. Yangi bilimlar olish ehtiyoji motiv sifatida qiziqish ko'rinishida bo'lishi mumkin. Har qanday faoliyatning, shu jumladan, o'quv faoliyatining asosida ham ko'zg'atuvchi komponent yotadiki, u barcha komponentlarga, ularning kechish dinamikasi va hosil qilinadigan pirovard natijaga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yoshlik davri 23-28 yoshlardan iborat bo'lib, bu davrning o'ziga xos hususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida



kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok qilish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir.

Yoshlarning mehnat faoliyati quyidagi uchta muhim belgisi bilan boshqa yosh davrlaridan farqlanadi: 1) mutaxassislikning mohiyatiga, ishlab chiqarish shart-sharoitiga va mehnat jamoasi aozolarining hususiyatiga moslashish - mehnat faoliyatining dastlabki yillari yoki jamoada o'z o'rnini topish va qadrqimmatga erishish; 2) mutaxassis sifatida o'zini takomillashtirish uchun ijodiy izlanishni amalga oshirish yoki kasbkorlik mahoratini egallash; 3) mahorat sirlaridan foydalanish, tashabbus ko'rsatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ijtimoiy etuklikni namoyish qilish yoki mehnat faoliyatidagi barqaror ijod bosqichida bir tekis 10 yillab ishlab sifatli mahsulot yaratish namunasini ko'rsatish. Yuqorida bosqichlar barcha kasb-kor egalariga xos bo'lsa-da, lekin ishlab chiqarishga ertaroq va kechroq kirib kelgan odamlar o'rtasida yosh jihatdan tafovut mavjud bo'ladi. Masalan, hunar-texnika bilim yurtini tamomlagan yigit-qizlar o'z mehnat faoliyatini oliy ma'lumotli yoshlardan oldin boshlaydilar, biroq ular ham mazkur bosqichlarni bosib o'tishlari shart.

“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun amalda O‘zbekistonda yoshlar huquq-manfaatlarining huquqiy kafolatlari yana-da kuchayayotganligini anglatish barobarida ertangi kunda mamlakatimiz yoshlarining yangi-yangi marralarni zabit etishiga, ularning yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sishiga zamin yaratmoqda. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun mamlakatimizda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlashga, yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar mas’uliyatini kuchaytirishga, ushbu sohada sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini yana-da oshirishga xizmat qiladi. Har bir ota-onas, har bir xonadon, har bir mahalla, bugungi kunda farzandlarimiz ta’lim-tarbiyasini eng asosiy vazifa sifatida bilib, yoshlarni xalqimizga yot va yangi avlod ongi uchun zararli bo‘lgan salbiy ta’sirlardan himoya qilish, millat va davlat taraqqiyotini dunyo hamjamiyatiga



ko‘rsatishga qodir bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashi ham qarz, ham farzdir. Zero, inson hayoti odob-axloq, ta’lim-tarbiya bilan bevosita bog‘liq.

Yurtboshimizning yoshlariimiz, farzandlarimizning yonib turgan ko‘zlari, g‘ayratshijoati, bilimga intilishi, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmayman, degan harakatini yorug‘ kelajagimizning, ezgu maqsadlarimizga erishishning asosiy omili va garovi sifatida ko‘ramiz, degan so‘zlari barcha tengdoshlarim qatori menga ham alohida mas’uliyat yuklaydi, – deydi Navro‘za. – Shu bois imkoniyatlardan unumli foydalanib, kelgusida yanada ulkan yutuqlarga erishishga va bildirilgan ishonchni oqlashga harakat qilaman.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

### I. Asosiy adabiyotlar:

12. Pavlovskiy V.V. Yuventologiya: proekt integrativnoy nauki o molodeji. M., 2001.
13. Sosiologiya molodeji: Uchebnik/ Pod. Red. prof. V.T. Lisovskogo. SPb: Izd-vo S-P.u-ta, 1996.
14. Oripov. Sh. Yoshlar siyosati — barqaror taraqqiyot kafolati. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012.

### II. Internet manbaalari

16. <http://yoshlar.gov.uz/uz/> - Yoshlar ishlari agentligi rasmiy sayti
17. <https://yoshlarportali.uz/uz/> - Yoshlar partali elektron platformasi sayti
18. <https://yoshlardaftari.uz/> - Yoshlar daftari electron platformasi sayti